

YASHIL MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA

Buriyev Shaxbos Baxtiyorovich

Qarshi davlat texnika universiteti talabasi.

Shakhbosburiyev319@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15677847>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil moliyalashtirish mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishi, shuningdek, ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilingan. Rivojlanayotgan mamlakat sifatida O'zbekiston global iqlim o'zgarishiga moslashish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida yangi moliyaviy vositalarni joriy etmoqda. Maqolada yashil obligatsiyalar, subsidiyalangan kreditlar, xalqaro grantlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali iqtisodiyotni "yashillashtirish" imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot davomida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yashil moliyalashtirish loyihalari, ularning yalpi ichki mahsulotga, bandlik darajasiga va investitsiya muhiti sifatiga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida baholangan. Shuningdek, mavjud institutsional muammolar va istiqbolli yechimlar bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil moliyalashtirish, barqaror rivojlanish, yashil investitsiyalar, yashil obligatsiyalar, ESG ko'rsatkichlari, qayta tiklanuvchi energiya, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston, ekologik xavfsizlik, moliyaviy innovatsiyalar.

Abstract. His article analyzes the development and implementation of green finance mechanisms in the Republic of Uzbekistan and evaluates their impact on economic growth. As an emerging economy, Uzbekistan is actively introducing innovative financial instruments aimed at addressing climate change, expanding renewable energy, and promoting ecological sustainability. The paper explores opportunities to "green" the national economy through green bonds, subsidized credit lines, international grants, and public-private partnerships. It assesses the quantitative effects of green finance projects on GDP, employment, and the investment climate using official data. The article also identifies key institutional barriers and provides forward-looking policy recommendations.

Keywords: green finance, sustainable development, green investments, green bonds, ESG indicators, renewable energy, economic growth, Uzbekistan, environmental security, financial innovations.

Аннотация. В статье анализируется формирование и развитие механизмов зелёного финансирования в Республике Узбекистан, а также их влияние на экономический рост. Как развивающаяся страна, Узбекистан внедряет современные финансовые инструменты, направленные на борьбу с изменением климата, развитие возобновляемых источников энергии и обеспечение экологической устойчивости. В работе рассматриваются возможности «озеленения» экономики через зелёные облигации, субсидированные кредитные линии, международные гранты и механизмы государственно-частного партнёрства. На основе официальных данных проводится оценка влияния зелёного финансирования на ВВП, занятость и инвестиционную среду.

Также предлагаются решения по преодолению институциональных барьеров и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: *зелёное финансирование, устойчивое развитие, зелёные инвестиции, зелёные облигации, ESG-индикаторы, возобновляемая энергетика, экономический рост, Узбекистан, экологическая безопасность, финансовые инновации.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yillikda iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi global darajada barqaror rivojlanishga jiddiy tahdid solmoqda. Bu holat barcha mamlakatlarni, xususan rivojlanayotgan davlatlarni, iqtisodiy siyosatini qayta ko‘rib chiqishga va ekologik jihatdan xavfsiz, ijtimoiy jihatdan adolatli iqtisodiy modelga o‘tishga undamoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) xalqaro hamjamiyatga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni atrof-muhit muhofazasi bilan uyg‘unlashtirish zarurligini yana bir bor eslatdi[1]. Aynan shu sharoitda “yashil iqtisodiyot” va uning ajralmas qismi bo‘lgan “yashil moliyalashtirish” tushunchalari dolzarb mavzuga aylandi.

Yashil moliyalashtirish — bu iqtisodiyotning ekologik barqaror yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan moliyaviy faoliyatidir. U nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, balki uni tiklovchi va ekologik muhofaza qiluvchi loyihalarni moliyalashtirishni nazarda tutadi. Dunyoda yashil moliyalashtirish asosan yashil obligatsiyalar, subsidiyalangan kreditlar, ekologik grantlar, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyiha moliyalash va ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) baholash tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Bu vositalar investitsiya muhitiga yangi dinamika olib kirib, iqtisodiy o‘sishning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi ham so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini bosqichma-bosqich iqtisodiy siyosatga tatbiq eta boshladi. 2019-yilda qabul qilingan “2019–2030 yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, 2021-yildagi “Iqlim o‘zgarishiga moslashish dasturi”, 2022-yilda ishlab chiqilgan “Yashil o‘sish yo‘l xaritasi” bu boradagi muhim qadamlar sirasiga kiradi[2]. Bundan tashqari, O‘zbekiston Markaziy banki tomonidan birinchi SDG obligatsiyasi chiqarilishi, 2023-yilda esa London fond birjasida yashil evroobligatsiyalar joylashtirilishi moliyaviy tizimda yangi sahifa ochdi[3]. Xalqaro moliya institutlari — xususan UNDP, AFD, Yevropa Ittifoqi — bilan hamkorlikda “Green Budgeting” va “Green Bonds Monitoring” kabi tashabbuslarning boshlanishi moliyalashtirishda ekologik mezonlar ulushining oshib borayotganini ko‘rsatadi[4].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish vositalarining iqtisodiy o‘sishga real ta’siri, xususan yalpi ichki mahsulot (YaIM), bandlik, sektoral investitsiyalar va ekologik indikatorlar bilan o‘zaro bog‘liqligi chuqur tahlil etilmagan. Aksariyat tadqiqotlar umumiy tushuncha va tavsifiy ko‘rsatkichlar doirasida qolmoqda. Shu boisdan, ushbu maqolada yashil moliyalashtirish vositalarining iqtisodiy ko‘rsatkichlarga bevosita va bilvosita ta’siri miqdoriy jihatdan baholanadi. Bundan tashqari, yashil moliyalashtirishni kengaytirishga to‘sqinlik qilayotgan institutsional muammolar va ularni bartaraf etish uchun zarur mexanizmlar aniqlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yashil moliyalashtirish sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar tahlili ushbu mavzuning global miqyosda dolzarbligini va tobora kengayib borayotgan qamrovini ko'rsatadi. So'nggi yillarda iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlari, uglerod chiqindilarining kamaytirilishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish zarurati kabi omillar davlat siyosati va moliyaviy institutlar faoliyatida yashil yondashuvlarning ahamiyatini oshirdi. Moliyaviy sektor orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash g'oyasi hozirda nafaqat rivojlangan, balki rivojlanayotgan davlatlar uchun ham ustuvor yo'nalishga aylangan. Yashil moliyalashtirish atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. OECD (2020) hisobotida yashil moliyalashtirish "ekologik mezonlarga asoslangan moliyaviy qarorlar qabul qilinishini ta'minlovchi tizim" sifatida tavsiflanadi. Ya'ni, bu faqatgina ekologik loyihalarni moliyalashtirish emas, balki moliyaviy vositalar orqali atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishdir.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, yashil moliyalashtirish mexanizmlari turli vositalar orqali amalga oshirilmoqda. Jumladan, yashil obligatsiyalar, yashil sukuk (islomiy moliyaviy vosita), ekologik kafolatli kreditlar, subsidiyalangan kredit liniyalari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar, grantlar va ESG mezonlari asosida qaror qabul qilish tizimlari shular jumlasidandir. Ushbu mexanizmlar rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Masalan, Xitoy Xalq Respublikasi 2016-yildan buyon markaziy banki tomonidan tasdiqlangan yashil loyihalarni alohida moliyaviy tartibda qo'llab-quvvatlamoqda. Natijada, 2020-yilga kelib Xitoy dunyoda eng katta yashil obligatsiyalar bozoriga ega davlatga aylandi.

Germaniyada esa yashil banklar faoliyati orqali 30 milliard yevrodan ortiq mablag' qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish va ekologik texnologiyalarga yo'naltirilgan[5]. O'zbekiston misolida qaralganda, mamlakatda yashil moliyalashtirish sohasida dastlabki amaliy qadamlar 2019-yildan boshlangan. O'sha yili qabul qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" asosida moliyalashtirish tizimida yangi yondashuvlar joriy etila boshlandi. 2021-yilda Markaziy bank tomonidan O'zbekiston tarixidagi birinchi SDG (barqaror rivojlanish maqsadlariga mos) obligatsiyasi chiqarildi. 2023-yilda esa O'zbekiston London fond birjasida umumiy qiymati 4,25 trln so'm bo'lgan yashil evroobligatsiyalarni joylashtirishga muvaffaq bo'ldi[6]. Bu mamlakat moliyaviy tarixidagi muhim burilishlardan biri sifatida baholandi.

Bundan tashqari, 2024-yilda UNDP, AFD va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikda "Green Budgeting" — ya'ni davlat byudjet xarajatlariga ekologik mezonlarni integratsiyalash loyihasi boshlangan bo'lib, bu jarayon moliyalashtirishda ekologik ko'rsatkichlarga asoslangan yondashuvlarning huquqiy va amaliy asosini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud ilmiy izlanishlar O'zbekistonda bu yo'nalishda hali chuqur empirik tadqiqotlar yetarli emasligini ko'rsatadi. Jumladan, D. Madrahimov (2023) yashil moliyalashtirishni joriy etishda yuzaga kelayotgan institutsional muammolar va mintaqaviy tengsizliklarni ko'rsatib bergan[7]. Shunga qaramay, quyidagi muammolar hanzugacha dolzarb: birinchidan, yashil moliyalashtirishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xususan, yalpi ichki mahsulot, bandlik, eksport hajmi va sektorlar bo'yicha o'sishga ta'siri hali chuqur statistik jihatdan o'rganilmagan; ikkinchidan, ESG mezonlari asosida moliyaviy qarorlar qabul qilinadigan mahalliy model

mavjud emas; uchinchidan, davlat idoralari va xususiy sektor o'rtasidagi ekologik sarmoyalarni rag'batlantirish bo'yicha koordinatsiya mexanizmlari sust rivojlangan.

Ushbu maqolada aynan mana shu bo'shliqlarni to'ldirish maqsad qilingan. Maqola muallifi tomonidan quyidagi ilmiy metodlar qo'llaniladi: birinchidan, tahliliy yondashuv asosida milliy va xalqaro qonunchilik, strategik hujjatlar, hisobotlar va mavjud ilmiy maqolalar chuqur o'rganiladi; ikkinchidan, solishtirma tahlil orqali O'zbekiston tajribasi Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya kabi ilg'or davlatlar bilan qiyoslanadi.

Tadqiqotda foydalaniladigan manbalar sifatida Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, UNDP, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Jahon banki, OECD va IMF ma'lumotlari asosiy rol o'ynaydi. Bu manbalar asosida respublikada yashil moliyalashtirishning rivojlanish darajasi, mavjud imkoniyatlar va institutsional to'siqlar kompleks yondashuv asosida baholanadi.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLIL

Ushbu bo'limda O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan yashil moliyalashtirish bo'yicha tashabbuslar, ularning hajmi, sektoral taqsimoti, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri hamda xalqaro reytinglardagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, institutsional muammolar va sohada yuzaga kelayotgan to'siqlar haqida ham batafsil so'z yuritiladi. O'zbekiston Respublikasida 2020–2024-yillar davomida yashil moliyalashtirish hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda. 2020-yilda umumiy moliyalashtirilgan yashil loyihalar hajmi 150 million AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 610 million dollarni tashkil etdi. 2024-yil yakuniga qadar ushbu ko'rsatkich 800 million dollardan oshishi prognoz qilinmoqda. Bu o'sish O'zbekistonning 2021-yilda birinchi barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) mos yashil suveren obligatsiyasini chiqarishi, 2023-yilda esa London fond birjasida umumiy qiymati 4,25 trillion so'm bo'lgan yashil evroobligatsiyalarni joylashtirgani bilan izohlanadi. Ushbu obligatsiyalar orqali ajratilgan mablag'lar asosan quyosh elektr stansiyalari, chiqindi suv tozalash inshootlari va energiya samarador texnologiyalarga yo'naltirilgan. Yashil investitsiyalar eng ko'p qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish, ichimlik suvi va sanitariya, ekologik transport hamda qishloq xo'jaligi sohalariga yo'naltirilgan. 2021–2023-yillar oralig'ida yashil sektor loyihalari orqali 45 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratilgan. Ayniqsa, quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, energiya samaradorligi bo'yicha loyiha va xizmatlar sohasida ishchi kuchiga bo'lgan talab ortgan[8]. Bu jarayon ayniqsa Qashqadaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonning global reytinglardagi o'rniga nazar tashlasak, Global Green Economy Index (GGEI) 2023-yilgi hisobotida mamlakat 130 ta davlat ichida 71-o'rinni egalladi. Bu 2019-yildagi o'rniga nisbatan 18 pog'onaga yuqorilashni anglatadi[9]. Ushbu ko'rsatkichning o'sishida moliyaviy shaffoflikning oshishi, yashil loyihalarning xalqaro grantlar asosida kengayishi hamda "Yashil budjetlashtirish" kabi mexanizmlarning joriy etilishi muhim omil bo'ldi.

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish bo'yicha muayyan yutuqlar mavjud bo'lsa-da, bu soha hali to'liq shakllanmagan va tizimlashtirishga ehtiyoj bor. Shuningdek, moliyaviy oqimlarning iqtisodiy o'sishga ko'rsatgan ijobiy ta'siri mamlakat uchun bu yo'nalishda yanada faol siyosat olib borish zarurligini anglatadi.

MUHOKAMA

O'zbekistonda yashil moliyalashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar va qo'llanilayotgan amaliy mexanizmlar keyingi yillarda ijobiy iqtisodiy va institutsional o'zgarishlarga zamin yaratmoqda. Avvalgi bo'limda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirishning hajmi, yo'naltirilayotgan sektorlar xilma-xilligi hamda yalpi ichki mahsulotga bevosita ta'siri sezilarli darajada oshgan. Bu esa respublikaning ekologik barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasida muvozanatni ta'minlashga bo'lgan intilishini yaqqol namoyon qiladi.

Xalqaro tajriba bilan solishtirganda, O'zbekistonning yondashuvi bir nechta ustuvor yo'nalishlar bo'yicha mos keladi. Masalan, Xitoy, Germaniya yoki Janubiy Koreya kabi davlatlar ham yashil obligatsiyalar orqali energiya samaradorligini oshirish, transport infratuzilmasini ekologik jihatdan modernizatsiya qilish hamda suv resurslarini tejovchi texnologiyalarni kengaytirishga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekistonning London fond birjasida yashil obligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirgani mintaqada noyob tajriba bo'lib, bu mamlakat moliyaviy imijining xalqaro maydondagi ijobiy o'zgarishlaridan dalolat beradi.

Shunga qaramay, tahlillar asosida qator institutsional va mexanizmik muammolar aniqlanmoqda. Jumladan, ESG baholash mezonlari va indikatorlarining yetarlicha qo'llanilmasligi, davlat-xususiy sheriklik doirasida moliyaviy risklarni taqsimlash mexanizmlarining noaniqligi, soliq imtiyozlari tizimining murakkabligi, hamda axborot shaffofligi pastligi bu sohada to'siq bo'lib qolmoqda.

Respondentlar tomonidan bildirgan fikrlar — ya'ni moliyalashtirishda kafolatlar yetishmasligi, banklar malakasining yetarli emasligi — bu muammolarni mustahkam tasdiqlaydi.

Yana bir e'tiborga loyiq jihat shundaki, O'zbekistonda yashil moliyalashtirishning asosiy qismi xalqaro donorlar, grantlar va xorijiy investorlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu holat qisqa muddatda moliyaviy oqimlarni ko'paytirsada, uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash uchun milliy resurslar, xususan, davlat moliyasi va xususiy sektor sarmoyasini faolroq jalb etish lozim.

Bu borada Green Budgeting loyihasining boshlanganligi muhim institutsional baza yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud iqtisodiy imkoniyatlar, xalqaro hamkorlik va real natijalar ijobiy yo'nalishda ekanligini ko'rsatmoqda. Ammo bu yo'nalishda faol harakat qilmaslik, islohotlarni chuqurlashtirmaslik, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirmaslik, amalda sezilarli iqtisodiy samaralarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, mavjud yutuqlarni mustahkamlash, institutsional to'siqlarni bartaraf etish va moliyalashtirish mexanizmlarini milliy iqtisodiyotga uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O'zbekistonda yashil moliyalashtirish sohasida olib borilayotgan islohotlar va xalqaro hamkorliklar natijasida barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish yo'lida muhim zamin yaratilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda, ular yalpi ichki mahsulot o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda, bandlik darajasini oshirmoqda va ekologik muhitning yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Xalqaro reytinglarda mamlakatning o'zni yaxshilashda, bu esa yashil moliyaviy siyosatning ijobiy natijalar berayotganidan dalolat beradi. Shunga qaramay, institutsional to'siqlar, normativ-huquqiy noaniqliklar, bank sektorida ESG mezonlarining yetarlicha joriy etilmagani, moliyaviy vositalarning keng omma uchun tushunarsizligi kabi omillar ushbu yo'nalishning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mavjud resurslar va imkoniyatlar to'liq safarbar qilinmasa, yashil moliyalashtirish uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlay olmaydi.

Shu munosabat bilan, quyidagi strategik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish: yashil moliyalashtirish bo'yicha alohida qonun qabul qilish, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va ESG baholash mezonlarini rasmiylashtirish lozim.

2. Mahalliy moliyaviy institutlar salohiyatini oshirish: banklar va moliyaviy tashkilotlar uchun ESG asosida baholash, risk tahlili va kreditlash siyosatlarini ishlab chiqish bo'yicha treninglar va texnik yordam dasturlarini joriy etish.

3. Soliq va subsidiya siyosatini qayta ko'rib chiqish: yashil investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini soddalashtirish, subsidiya berish mexanizmlarini shaffof va ochiq qilish.

Yuqoridagi tavsiyalarni izchil amalga oshirish orqali O'zbekiston Respublikasi nafaqat mintaqada, balki xalqaro maydonda ham yashil moliyalashtirish sohasida ilg'or tajribaga ega mamlakatlardan biriga aylanishi mumkin. Bu esa iqtisodiy barqarorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

REFERENCES

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. (2015). Dunyo taraqqiyotini o'zgartirish: 2030-yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish kun tartibi. – Nyu-York:BMT Bosh assambleyasi. <https://sdgs.un.org/2030agenda>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2019). 2019–2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida [PQ–4477-son qaror, 4-oktabr 2019-yil]. – Toshkent: Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4543184>
3. Jahon banki. (2023). Financing Green Growth in Uzbekistan: Case Summary. – The World Bank Group. <https://www.worldbank.org>
4. UNDP Uzbekistan, AFD va Yevropa Ittifoqi. (2024). O'zbekistonda yashil budjetlashtirish loyihasi ishga tushirildi – Matbuot xabari. <https://www.uz.undp.org>
5. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD2020). Yashil moliyalashtirish va investitsiya: barqaror moliyalashtirish bo'yicha tavsiyalar. Parij: OECD nashriyoti. <https://www.oecd.org/environment/green-finance-and-investment>
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2021). SDG suveren obligatsiyasining emissiyasi haqida matbuot xabari. <https://cbu.uz>
7. Madrahimov D (2023).Yashil moliyalashtirishni joriy etishdagi institutsional to'siqlar: tahliliy yondashuv. – TDIU Ilmiy axborotnomasi, №1, 54–60-betlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Yashil moliyalashtirish loyihalari bo'yicha amaliy hisobot.– Toshkent. <https://mineconomy.uz>
9. Dual Citizen LLC. (2023). Global Green Economy Index (GGEI) – 2023-yilgi hisobot va mamlakat reytinglari. <https://dualcitizeninc.com/global-green-economy-index>